



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

2024-yil 20 _____ 03 _____ № 1-9-6/102

Qibray tumani

Toshkent davlat agrar universiteti xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitish va malaka oshirishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil 15-martdag'i 81-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitish va malaka oshirishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'iiga asosan

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil 15-martdag'i 81-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitish va malaka oshirishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish, xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini hamda huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida, Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleyans-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (*T.Azizzoxjayev*) va Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi (*D.Xalmirzayev*) rahbarlari:

- Universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bo'yicha tasdiqlangan yillik rejasi asosida xodimlar, shu jumladan ishga yangi kirgan xodimlarni har chorak yakuniga ko'ra, ya'ni iyun, sentabr va dekabr oylarining uchunchi dekadasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'qitish va malakasini oshirsin;

- Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishli ma'lumotlarni har chorak yakuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rahbariyatiga taqdim etib borilsin.

3. Mazkur buyrug'i prosimi nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Birinchi prorektor



S. Islamov